

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No5

2026
MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, may.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEKANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI	10
Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna	
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА.....	19
Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишерович	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНА	28
Габбарова Ильмира Володиевна	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLUATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH	34
Amirov Shavkat Rahmatullayevich	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	41
Усманова Азиза Баходировна	
PEREGONDAGI HARAKATNI BOSHQARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSESSORLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIQISH.....	46
Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	55
Alimova Dilafrō'z Tohir qizii	
HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	61
Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi	
QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHAGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR	67
Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	75
Rajapov Xayrulla Bekdurdyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi	
INTERPOLATSION TIKLASH ALGORITMLARINING OCR ANIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	82
Aliyev Nodirbek Hamidullo o'g'li	
IKORXONALARDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI	90
Muxtorova Shaxlo Farxodovna	
O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI EKONOMETRIK PROGNOZLASH.....	94
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
KPI-BASED PERFORMANCE MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON EMPLOYEE PRODUCTIVITY	99
Sultanova Kamila Mukhtorali kizi	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	104
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
FARG'ONA VILOYATI MAHALLALARIDA TADBIRKORLIK VA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL OMILLARINI BAHOLASH	110
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	



MHXS STANDARTLARIGA O'TISH: KORXONALAR UCHUN AMALIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	116
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TURMUSH FAROVONLIGINI BAHOLASHNING KO'P O'LCHOVLI USULLARI VA MEZONLARI	120
Turdikulova Moxira Maxmasharifovna	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIVAVIY-IQTISODIY IMPERATIVLARI	125
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA RO'Y BERISHI MUMKIN BO'LGAN BAXTSIZ HODISALAR VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI	131
Dehqonov Oyatillo Mansurbek o'g'li, Abduraxmanov Abdurashid Ataxanovich	
VTULKA DETALINI ISHLAB CHIQUARISHDA SHTAMPLASH TEXNOLOGIK JARAYONINI ISHLAB CHIQUISH...	136
Abdullayev Fatxulla, Xasanov Kamoliddin, Yolg'ashova Madina, Jo'rayev Muhiddin	
JAHON MOLIVAVIY TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	140
Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.	
KORXONALARDA "TEJAMKOR ISHLAB CHIQUARISH" KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJIRIBASI	144
Mamasoliyev G'ayratbek Maxamadyusupovich	
HUDUDYIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MAHSULOT EKSPORTINI DIVERSIFIKATSIYALASH YO'LLARI	149
Mamadjanova Tuyg'unoy Axmadjanovna	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQUARISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ASOSIDA YUQORI QO'SHILGAN QIYMATLI MAHSULOTLAR ULUSHINI KENGAYTIRISH	154
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
AHOLINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MIKROLOYIHALARNING O'RNI	159
Irgashev Anvar Farxodovich	
XALQARO KOMPANIYALARDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	166
Raxmankulov Sherzod Shokirovich	
ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ДЕГРАДАЦИИ КОМПОНЕНТОВ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ МОДУЛЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ КЛИМАТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ: ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР	171
Дыскин Валерий Григорьевич, Курбанов Юнус Муртаза угли, Жубаназаров Ринат Шапагат Улы	
RIVOJLANGAN DAVLATLARDA CHIQUINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI	177
O'tbosarov Abrorbek Adxamjon o'g'li	
DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARI ICHKI AUDITORLARINING PROFESSIONAL AXLOQ QOIDALARINI ISHLAB CHIQUISH.....	182
Xamidova Zarifa Urol qizi	
AUDIT JARAYONIDA DALIL OLISH VA UNING MUAMMOLARI	189
Ro'zmetov Mansur	
O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY TURIZMNI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	193
Shaydulova Marjona Alisher qizi	
KORXONALARNING MOLIVAVIY HOLATINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR VA ULARNING MOLIVAVIY TAHLILI AHAMIYATI.....	198
Rizoyev Farrux Hikmatilloevich	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK SANOAT ZONALARIDA IQTISODIY SALOHİYATNI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI.....	203
Turaboev Ibroxim Ismoil o'g'li	
ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG'DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	208
Komilova Nodira Abdirahmon qizi	



СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УСЛОВИЯХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ РЕФОРМ	218
Юсупов Зойиржон Ровшан угли, Жумаев Улуғбек Нодирбекович	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ УПРАВЛЕНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ КОМПАНИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ	224
Тожалиев Шохрух Талип ўғли	
GAMES ARE A POWERFUL TOOL FOR IMPROVING LANGUAGE LEARNING	229
Kulakhmedova Gulnora Abdurahimovna	
O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING INNOVATSION XIZMATLARI ORQALI KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISH	234
Azlarova Aziza Axrorovna	
AVTOMOBIL SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINI BOSHQARISH VA RISKLARNI KAMAYTIRISH MEKANIZMLARI	241
Marufxanov Davron Hasanovich	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING YANGI IMKONIYATLARI: 2026-YIL ISLOHOTLARI VA ISTIQBOLLARI	249
Isakjanova Saboxat Muhamedovna	
MINTAQA IQTISODIYOTI VA SANOATNING RIVOJLANISHI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNING NAZARIY YONDASHUVLARI	256
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	

MINTAQA IQTISODIYOTI VA SANOATNING RIVOJLANISHI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNING NAZARIY YONDASHUVLARI

Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna

Namangan davlat texnika universiteti

"Menejment" kafedrası o'qituvchisi

Email: muazzamjalolova859@gmail.com

ORCID: 0009-0000-0037-2267

Annotatsiya: Mazkur maqolada mintaqa iqtisodiyoti va sanoatning rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning nazariy yondashuvlari tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida klassik, neoklassik, kumulativ o'sish, yangi iqtisodiy geografiya, institutsional hamda endogen o'sish nazariyalari asosida sanoat rivojining hududiy iqtisodiy o'sishga ta'sir mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sanoat tarmog'ining hududiy konsentratsiyasi, investitsiya muhiti sifati, infratuzilma rivoji hamda inson kapitalining darajasi mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini belgilovchi asosiy omillar sifatida aniqlanadi. Ilmiy yangilik sifatida mintaqa iqtisodiyoti va sanoat rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ifodalovchi integratsiyalashgan konseptual model taklif etiladi.

Kalit so'zlar: mintaqa iqtisodiyoti, sanoat rivojlanishi, hududiy o'sish, iqtisodiy integratsiya, institutsional muhit, innovatsiya.

Аннотация: В данной статье систематически анализируются теоретические подходы к взаимосвязи региональной экономики и промышленного развития. В рамках исследования механизмы влияния промышленного развития на региональный экономический рост научно обоснованы на основе теорий классического, неоклассического, кумулятивного роста, новой экономической географии, институционального и эндогенного роста. По результатам исследования определены основные факторы, определяющие устойчивое развитие региональной экономики: территориальная концентрация промышленного сектора, качество инвестиционного климата, развитие инфраструктуры и уровень человеческого капитала. В качестве научной новинки предложена интегрированная концептуальная модель, отражающая взаимодействие региональной экономики и промышленного развития.

Ключевые слова: Региональная экономика, промышленное развитие, территориальный рост, экономическая интеграция, институциональная среда, инновации.

Abstract: This article systematically analyzes theoretical approaches to the relationship between the regional economy and industrial development. Within the framework of the study, the mechanisms of the impact of industrial development on regional economic growth are scientifically substantiated based on the theories of classical, neoclassical, cumulative growth, new economic geography, institutional and endogenous growth. According to the results of the study, the territorial concentration of the industrial sector, the quality of the investment environment, the development of infrastructure and the level of human capital are identified as the main factors determining the sustainable development of the regional economy. As a scientific novelty, an integrated conceptual model is proposed that reflects the interaction between the regional economy and industrial development.

Keywords: Regional economy, industrial development, territorial growth, economic integration, institutional environment, innovation.

KIRISH

Mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi sanoat tarmog'ining holati, uning tarkibiy tuzilmasi va hududiy joylashuv xususiyatlari bilan uzviy bog'liqdir. Sanoat ishlab chiqarishi mintaqalarda yalpi hududiy mahsulot hajmining shakllanishi, bandlik darajasining oshishi, aholi daromadlarining barqarorlashuvi hamda eksport salohiyatining kengayishida asosiy drayver sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, sanoat rivojining sur'ati va sifati hududiy resurs salohiyati, infratuzilma rivojlanganligi, institutsional muhit va investitsiya iqlimi kabi omillarga bevosita bog'liq bo'lib, ushbu o'zaro ta'sir mexanizmlarini chuqur ilmiy asosda o'rganish mintaqaviy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu boisdan, mazkur tadqiqotning maqsadi mintaqa iqtisodiyoti va sanoat rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning nazariy yondashuvlarini tizimli ravishda umumlashtirish, ularning ichki mexanizmlarini ochib berish hamda hududiy rivojlanishni ta'minlovchi integratsiyalashgan konseptual modelni ishlab chiqishdan



iborat. Tadqiqot doirasida klassik va zamonaviy iqtisodiy nazariyalar asosida sanoat rivojining hududiy iqtisodiy o'sishga ta'sir yo'nalishlari aniqlanadi, shuningdek, mintaqaviy sanoat siyosatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar shakllantiriladi.

Mazkur ilmiy izlanish natijalari hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda, sanoat joylashuvini optimallashtirishda hamda mintaqaviy investitsiya siyosatini takomillashtirishda metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa, sanoat klasterlarini rivojlantirish, erkin iqtisodiy zonalar va texnoparklar faoliyatini hududiy iqtisodiy tizim bilan uyg'unlashtirishda tadqiqot xulosalarining amaliy ahamiyati yuqori bo'lishi kutiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqa iqtisodiyoti va sanoat rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalasi iqtisodiy nazariyaning turli maktablari doirasida keng tahlil qilingan. Klassik iqtisodiy maktab vakillari A. Smit va D. Rikardo hududiy rivojlanishni mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish omillarining ixtisoslashuvi hamda nisbiy ustunliklar nazariyasi orqali izohlab, sanoat ishlab chiqarishini hududiy iqtisodiy o'sishning asosiy manbai sifatida baholaganlar [1], [2]. Neoklassik modelda esa R. Solou va T. Swan sanoat rivojini kapital jamg'arilishi, texnologik taraqqiyot va mehnat resurslari kombinatsiyasi orqali izohlab, sanoatning hududiy iqtisodiyotga ta'sirini makroiqtisodiy muvozanat doirasida tahlil qilgan [3], [4].

Yangi iqtisodiy geografiya nazariyasi doirasida P. Krugman, M. Fujita va A. Venables sanoat ishlab chiqarishining hududiy joylashuvini transport xarajatlari, bozor sig'imi va aglomeratsiya effektlari orqali izohlab, sanoat klasterlarining mintaqqa iqtisodiyotiga kuchli multiplikativ ta'sirini ilmiy asoslab berdilar [5], [6]. Ushbu yondashuvga ko'ra, sanoatning hududiy konsentratsiyasi innovatsion faollikni oshiradi, ishlab chiqarish xarajatlari kamaytiradi va raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, aglomeratsion iqtisod hududiy iqtisodiy tizimlarning ichki integratsiyasini jadallashtiradi, bu esa mintaqaning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi [7].

O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham mintaqqa iqtisodiyoti va sanoat rivoji o'rtasidagi bog'liqlik masalasi keng yoritilgan. Jumladan, A. Vahobov, Q. Karimov, Sh. Mustafakulov va B. Berkinovlar sanoat ishlab chiqarishining hududiy tarkibiy o'zgarishlari, investitsiya faolligi va bandlik darajasiga ta'sirini empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilganlar [8], [9], [10]. Ushbu tadqiqotlarda sanoatni hududiy rivojlanishning strategik drayveri sifatida rivojlantirish zarurligi asoslab beriladi.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mintaqqa iqtisodiyoti va sanoat rivoji o'rtasidagi bog'liqlikning alohida jihatlari yoritib berilgan bo'lsa-da, ularning kompleks, tizimli va integratsiyalashgan modeli yetarlicha shakllantirilmagan. Ayniqsa, sanoat rivojining hududiy multiplikativ, aglomeratsion va institutsional mexanizmlarini yagona konseptual doirada birlashtiruvchi nazariy yondashuvlarga ehtiyoj yuqori bo'lib qolmoqda. Mazkur ilmiy bo'shliq ushbu tadqiqotning metodologik va konseptual asosini belgilab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot mintaqqa iqtisodiyoti va sanoat rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash va baholashga qaratilgan bo'lib, tizimli-integratsiyalashgan metodologik yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqotda mintaqqa iqtisodiyoti murakkab, ko'p omilli va ochiq tizim sifatida qaralib, sanoat rivoji ushbu tizimning asosiy strukturaviy drayveri sifatida talqin qilindi. Ushbu yondashuv sanoat, investitsiya, infratuzilma, inson kapitali va institutsional omillar o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlarini kompleks tahlil qilish imkonini berdi.

Empirik tahlil uchun yalpi hududiy mahsulot, sanoat ishlab chiqarish hajmi, asosiy kapitalga investitsiyalar, sanoatda bandlik, infratuzilma rivoji va inson kapitali ko'rsatkichlari asosiy tahliliy indikatorlar sifatida tanlandi. Ushbu ma'lumotlar asosida dinamik qatorlar tahlili, korrelyatsion tahlil va ko'p omilli regressiya modellari qo'llanilib, sanoat rivojining mintaqqa iqtisodiyotiga ta'siri miqdoriy jihatdan baholandi.

Tadqiqot metodologiyasi panel ma'lumotlar usuli yordamida hududlar va vaqt kesimida sanoat rivojining iqtisodiy samaradorligini aniqlashga yo'naltirildi, natijalarning ishonchiligi esa statistik mezonlar asosida tekshirildi. Ushbu metodologiya sanoat omillarining hududiy iqtisodiy o'sishga bevosita va bilvosita ta'sir mexanizmlarini aniqlash, shuningdek, hududiy rivojlanish siyosatini ilmiy asosda shakllantirish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR


O'tkazilgan empirik tahlil Namangan viloyatida sanoat tarmog'i so'nggi o'n yillikda mintaqqa iqtisodiy rivojlanishining yetakchi drayveriga aylanib borayotganini ko'rsatdi. Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sishi yalpi hududiy mahsulot (YHM)ning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatib, iqtisodiy faollikning asosiy manbai sifatida namoyon bo'lmoqda (1-jadval).

1-jadval. Namangan viloyatida sanoat ishlab chiqarishi va YHM dinamikasi (2015–2024 yy.)¹

Yillar	Sanoat mahsuloti (mlrd so'm)	O'sish sur'ati, %	YHM (mlrd so'm)	YHM o'sishi, %
2015	5 230	107,8	10 840	106,3
2017	8 940	112,4	16 320	108,1
2019	14 870	118,6	24 950	110,2
2021	19 460	109,5	32 180	107,6
2023	27 830	113,8	44 610	109,4
2024	31 900	114,6	50 780	111,2

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2015–2024-yillar davomida Namangan viloyatida sanoat mahsuloti hajmi 6 baravardan ortiq oshgan. Ushbu o'sish YHM dinamikasida ham barqaror ijobiy tendensiyaning yuzaga keltirib, iqtisodiy rivojlanishning sanoatga yuqori darajada bog'liqligini tasdiqlaydi. Korrelyatsion tahlil natijalari sanoat ishlab chiqarishi va YHM o'rtasida kuchli musbat bog'liqlik ($r \approx 0,86$) mavjudligini ko'rsatdi. Bu holat sanoatning viloyat iqtisodiyotida asosiy tizim yaratuvchi sektor ekanini ilmiy asoslaydi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 2025-yil yanvar–mart oylarida 2363,9 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil yanvar–mart oylarida bu ko'rsatkich 1699,8 ming so'mni tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,9 %ni ko'rsatmoqda (1-rasm).




1-rasm. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish (2021–2025-yillar yanvar–mart oylarida)

2025-yilning yanvar–mart oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 6 125,9 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi esa 82,6 %ni tashkil etdi. Shu bilan birga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 20,2 mlrd so'm (0,3 %), elektr, gaz, bug' bilan

1 Manba: Namstat.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



ta'minlash va havoni konditsiyalashda 1 190,2 mlrd so'm (16,0 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 82,1 mlrd so'm (1,1 %)ni tashkil etdi (2-rasm).



2-rasm. Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi (2025-yilning yanvar-mart oylarida)²

Namangan viloyat sanoatining tarkibiy tuzilmasi asosan to'qimachilik, oziq-ovqat, qurilish materiallari va elektrotexnika tarmoqlari hisobiga shakllanmoqda (2-jadval).

2-jadval. Namangan viloyati sanoat tarmoqlari tarkibi (2024-yil, %)³

Tarmoqlar	Ulushi, %
To'qimachilik va tikuv-trikotaj	41,8
Oziq-ovqat sanoati	19,6
Qurilish materiallari	14,2
Elektrotexnika	9,7
Mashinasozlik	6,1
Boshqa tarmoqlar	8,6

Namangan viloyati sanoatida to'qimachilik tarmog'ining yuqori konsentratsiyasi (41,8 %) kuzatiladi. Bu viloyatning mehnat resurslari salohiyati va paxta-to'qimachilik klasterlari rivoji bilan izohlanadi. Shuningdek, sanoatning yuqori qo'shilgan qiymat yaratish salohiyatini yanada kengaytirish uchun muhim imkoniyatlar shakllanmoqda.

Bu holat eksport tarkibida ham namoyon bo'lib, viloyat eksportining asosiy qismini qayta ishlangan mahsulotlar tashkil etmoqda. Shu sababli sanoat rivojining iqtisodiy samaradorligi miqdoriy o'sish bilan bir qatorda sifat jihatidan ham bosqichma-bosqich takomillashib bormoqda.

Sanoat tarmog'i Namangan viloyatida bandlikni oshirishning asosiy manbai hisoblanadi. So'nggi yillarda sanoatda band aholining umumiy bandlikdagi ulushi barqaror o'sib bormoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari Namangan viloyatida sanoat rivoji mintaqa iqtisodiy o'sishining asosiy harakatlantiruvchi kuchi ekanini yaqqol ko'rsatdi. Viloyat yalpi hududiy mahsulotining shakllanishida sanoat tarmog'ining ulushi yildan yilga ortib borayotgani bilan birga, ushbu o'sish sifat jihatidan yanada barqaror rivojlanish uchun muhim asoslarni shakllantirmoqda hamda miqdoriy kengayish bilan bir qatorda yangi rivojlanish bosqichiga o'tish imkoniyatlarini yaratmoqda. Bu esa sanoat rivojining chuqur strukturaviy transformatsiyasini jadallashtirish

2 Manba: Namstat.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

3 Manba: Namstat.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

uchun qulay sharoitlar yuzaga kelayotganini ko'rsatadi.

Empirik tahlil Namangan viloyatida sanoat ishlab chiqarishi asosan to'qimachilik, oziq-ovqat va qurilish materiallari tarmoqlariga yuqori darajada ixtisoslashganini aniqladi. Shu bilan birga, ushbu ixtisoslashuv yuqori qo'shilgan qiymat, texnologik murakkablik va innovatsion salohiyatni yanada kengaytirish uchun muhim imkoniyatlarni shakllantirmoqda. Natijada sanoatning hududiy iqtisodiyotga multiplikativ ta'sirini kuchaytirish, eksport tarkibida yuqori qayta ishlangan mahsulotlar ulushini oshirish hamda mehnat unumdorligini respublika o'rtacha darajasiga yaqinlashtirish uchun zarur asoslar yuzaga kelmoqda.

Viloyatda sanoat rivoji va infratuzilma o'rtasidagi muvofiqlikni yanada takomillashtirish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Ayrim tumanlarda sanoat korxonalari yuqori sur'atlarda tashkil etilgani transport-logistika, energetika va muhandislik infratuzilmasini modernizatsiya qilish uchun qo'shimcha turtki bermoqda. Bu holat ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, logistika samaradorligini oshirish va investitsiya jozibadorligini yanada kuchaytirish uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda.

Eng muhim istiqbolli yo'nalishlardan biri — sanoat-ta'lim-innovatsiya zanjirini yanada mustahkamlash hisoblanadi. Namangan viloyatida oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari mavjudligi sanoat korxonalari bilan texnologik va innovatsion hamkorlikni kengaytirish uchun mustahkam institutsional baza yaratmoqda. Bu esa sanoat rivojining texnologik yangilanishini jadallashtirish hamda uzoq muddatli raqobatbardoshlikni yanada oshirish uchun qulay sharoit shakllantirmoqda.

Umuman olganda, mintaqa iqtisodiyoti va sanoatning rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik muhim strategik vazifa bo'lib, tadqiqotda olingan xulosalar hududiy sanoat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. – London: Methuen & Co., 1776. – 512 p.
2. Ricardo D. On the Principles of Political Economy and Taxation. – London: John Murray, 1817. – 432 p.
3. Solow R. M. A Contribution to the Theory of Economic Growth // Quarterly Journal of Economics. – 1956. – Vol. 70, No. 1. – P. 65–94.
4. Swan T. W. Economic Growth and Capital Accumulation // Economic Record. – 1956. – Vol. 32, No. 2. – P. 334–361.
5. Krugman P. Increasing Returns and Economic Geography // Journal of Political Economy. – 1991. – Vol. 99, No. 3. – P. 483–499.
6. Fujita M., Krugman P., Venables A. The Spatial Economy: Cities, Regions and International Trade. – Cambridge: MIT Press, 1999. – 367 p.
7. Myrdal G. Economic Theory and Underdeveloped Regions. – London: Duckworth, 1957. – 168 p.
8. North D. C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 152 p.
9. Mustafakulov Sh. I. Hududiy iqtisodiy rivojlanishni boshqarish mexanizmlari. – Toshkent: Fan, 2020. – 304 b.
10. Berkinov B. B. O'zbekistonda sanoatni hududiy rivojlantirish muammolari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 280 b.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF–60-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
12. Perroux F. Economic Space: Theory and Applications // Quarterly Journal of Economics. – 1950. – Vol. 64, No. 1. – P. 89–104.
13. Hirschman A. O. The Strategy of Economic Development. – New Haven: Yale University Press, 1958. – 217 p.
14. Williamson O. E. The Economic Institutions of Capitalism. – New York: Free Press, 1985. – 450 p.
15. Coase R. H. The Nature of the Firm // Economica. – 1937. – Vol. 4, No. 16. – P. 386–405.
16. Lucas R. E. On the Mechanics of Economic Development // Journal of Monetary Economics. – 1988. – Vol. 22, No. 1. – P. 3–42.
17. Romer P. M. Endogenous Technological Change // Journal of Political Economy. – 1990. – Vol. 98, No. 5. – P. 71–102.
18. Porter M. E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – 855 p.
19. Scott A. J., Storper M. Regions, Globalization, Development. – Oxford: Oxford University Press, 2003. – 368 p.
20. Vahobov A. V., Karimov Q. N. Mintaqaviy iqtisodiyot: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. – 368 b.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100